

ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANIDA PORTRET VA PEYZAJ

Urganch davlat universiteti talabasi
Madaminova Dilnura Bahodir qizi

ARTICLE INFO.

Keywords: *peyzaj, portret, inson va tabiat, o'xshatish, Bilga xoqon, Kul Tigin, tabg'ach, qish, oy.*

Abstract:

Ushbu maqolada Isajon Sultanning “Bilga xoqon” romanidagi peyzaj va portretlar tahlili berilgan, jumladan, asar kompozitsiyasida peyzajning tutgan o'rni, yozuvchining peyzaj yaratish mahorati va Bilga xoqon, Kul tigin, El Bo'g'u, Ishbara va To'nyuquq kabi obrazlarning portretlari haqida so'z boradi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qaraydi. U asar g'oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o'sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalaydi. Asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini tabiat tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi. Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqeahodisalarini turli yo'llar bilan ifodalash usullari ifodaviy vositalar sanaladi. Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki tabiat manzarasi tasvirida ijodkorning so'z boyligi, uni qo'llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi.

Inson o'zini o'rab turgan muhitdan ajralgan holda yashamaydi. U muhit bilan munosabatga kirishadi, undan ta'sirlanadi, unga moslashadi va ta'sir ham qiladi. Muhit ma'nosini keng tushuncha bo'lib, uning tarkibiy qismiga tabiat manzaralari – peyzaj ham kiradi.” [1,70]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Yozuvchi atrof-muhitning go'zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratiladi. Kitobxon uni o'qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko'z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o'giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to'laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda o'girishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o'xshatish va boshqa turli badiiy san'atlarni qo'llashga urinadi.

Adabiyotshunoslikda tabiat tasvirini o'rganish har doim muhim masala bo'lib kelgan. Zero,

ijodkor o‘z asari orqali nima demoqchi ekanligini, badiiy g‘oyasini faqat personajlarning xatti-harakatlari bilan emas, balki ularning atrofidagi tabiat tasvirlari orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj orqali kitobxonga tabiat go‘zalliklarini anglatish va uni asrash kerakligi ham singdirib boriladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida peyzaj ta’rif bunday deyiladi: “Peyzaj – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interer) tasviri.” [1,70]

Adabiyotshunos olimlarimizning peyzaj haqida qarashlari turlichadir. Masalan, T.Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” kitobida asar kompozitsiyasi unsurlari qatorida o‘rganilgan. “Ko‘pgina asarlarda peyzaj g‘oyatda muhim g‘oyaviy-kompozitsion rol o‘ynaydi. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan o‘zining tabiatga munosabatini ifodalaydi: tabiat go‘zalligi, boyligi va qudratini ta’rif tavsif etadi, qalamga olingan joylar tabiatining o‘ziga xos xususiyatlarini ochadi”. H.Umurov, Y.Solijonov, D.Quronov kabilar ta’kidlaganidek, peyzaj, dastavval, badiiy asarda tasvirlanganda tabiat tasviridir.

TADQIQOT NATIJALARI

Asarni badiiy jihatdan mustahkamlovchi vosita uning mantiqiy markazi hisoblanadi. Asarning mantiqiy markazi – mimika, obraz, portret, voqeа, detal, avtor munosabati, konflikt bo‘lishi mumkin. Asarning birinchi bo‘limi “Kichik yish” deb nomlangan, roman “Ko‘gman tog‘i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi.”, - deya boshlanadi. Yozuvchi qish fasli kelganini tasvirlashda qishga xos belgilarni sanab o‘tirmasdan, oddiygina qilib “qish bola tashlagan” deya ifodalaydi. Turkiylar qor momoguldurak bilan yog‘sa shunday deyishadi. Bu oddiylik roman g‘oyaviy kompozitsiyasiga xizmat qilgan deya ayta olamiz.

Nafaqat, asarning boshlanmasidagi tabiat tasviri, balki roman davomidagi tabiat tasvirlari kitobxonni o‘ziga tortmasdan qo‘ymaydi. Asar davomida qish fasli bilan bog‘liq tasvirlarni ko‘p uchratishimiz mumkin:

“Qattiq qish o‘z yoyini olib tevarakka muz o‘qlarini otgan, qordan to‘sinq yasab, izg‘irin cherigini yoygan kez, ikki to‘p otliq To‘qqiz o‘g‘uz yeridan chiqib, bir qismi Yaris cho‘lidan o‘tib Shantungga, Tabg‘ach eliga, yana biri undan-da yiroqqa – jangju xoqoniga so‘z yetkazish uchun yelgan edi.” “Ho‘kiz yili Tangritog‘ etaklariga shunday keldi. Qirov-bulduruqlar osilib-osilib yotdi, suvlar tubigacha muzladi.”

Isajon Sultonning barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmasligini, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etishini tasvirlaydi. Xususan, ”Ko‘klam kelib, o‘langlar yam-yashil bo‘lgan, o‘tlarni terib-terib, unga bulab yupqa pishirishgan edi. Bolachalar og‘zi-beti qorakuya bo‘lib yupqalarni yeb yurishardi” yoki ”Yillar o‘taverdi. Yana ko‘klam keldi, tog‘-u tosh, cho‘l uzra o‘t undi, ifor yugurdi.”

MUHOKAMA

Isajon Sulton romanlarida inson va tabiat, qo‘rquv va umid, zarurat vaadolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi. Yozuvchi ko‘proq tarixiylik tamoyilidan kelib chiqib sermanzara kartinalar chizadi. Romadagi oy tasviri kitobxonni o‘ziga tortadi, yozuvchi ijodidagi bu tasvir hech kimnikiga o‘xshamagan, hech bir asarda uchramaydigan o‘ziga xos peyzaj namunasi deyishimiz mumkin:

“Bir necha kun yoqqan qor tingach, ko‘kka oymomo chiqdi. U yer yuziga oq sovuqlarni yubordi. Og‘ochlaru o‘tlarni bulduruqlar bilan bezadi, yov kabi bildirmay kelib, suv betiga tabg‘achning bezaklari kabi bezaklar chizdi, ichidagi suvi to‘kilmay qolib ketgan idishlarni tars-tars yordi, qorni shunday to‘ng‘itdiki, oyoq ostida kumushday g‘ichirlab sochilar bo‘ldi.”

Adib nasrinining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, uning asarlarida peyzaj mahorat bilan

qo‘llaniladi. Kamalak chiqishini tasvirlashda ham oddiy so‘zlar bilan go‘zal o‘xshatish yarata olgan: “Bir kuni sharros yomg‘ir quydi. Ko‘k yetti tusli belbog‘ini boyladı...”. Shuningdek, romandagi tog‘ tasviri: “Ko‘gman tog‘i ulug‘, tuman orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan,sovuuq jimjitlik aro sassiz-unsiz yuksalgan, cherik tog‘ etagida to‘xtab qoldi.”, “Bir yon bo‘zqir edi, usti qor, yer muzlagan, ko‘k toza edi. Bir yon Ko‘gman tog‘i edi, qorli-tumanli boshi bulut orasida edi.” ; bahor tasviri: “Ko‘klamoyim kelgunicha to‘qqizta yetti kun bor...”, “Ko‘klam kelib, o‘langlar yam-yashil bo‘lgan, o‘tlarni terib-terib, unga bulab yupqa pishirishgan edi. Bolachalar og‘zi-beti qorakuya bo‘lib yupqalarni yeb yurishardi...”, “Yillar o‘taverdi. Yana ko‘klam keldi, tog‘-u tosh, cho‘l uzra o‘t undi, ifor yugurdi”; qor tasviri: “Qorni ko‘rib bu tozalik, oqlik dedim, ezbilikka yo‘ydim...”.

I.Sulton o‘zining “Adabiyot nazariyasi” darsligida peyzaj va badiiy portretini asar syujetining unsuri sifatida tahlil qilgan. “Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko‘rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. (Masalan, qahramon yomon ob-u havodan xastalanib, qo‘qqisdan halok bo‘ladi yoki biror tabiiy ofat uning yo‘lida to‘sinq bo‘lib, jismoniy va ruhiy qobiliyatliariuchun sinov vazifasini o‘taydi.)” Xususan, “Bilga xoqon” romanida ham ko‘plab portretlarni uchratishimiz mumkin, ularning bir nechtasiga to‘xtalib o‘tamiz:

- a) Yonida chaqmoqday tez, qarchig‘ayday o‘zg‘ir inisi Kul Tigin ekan. Ko‘zi boyo‘g‘lining ko‘ziday, bilgich yo‘riqchisi To‘nyuquq ekan.
- b) “To‘ngra Sam To‘qqiz o‘g‘uz ulusining yurakli beklaridan edi. Chopqirligi shunday ediki, bir otni minib, ikkinchisini ergashtirib chopardi. Biri horisa, ot ustidayoq boshqasiga sakrab o‘tib ketaverar, horigan ot esa yuki ozaygani uchun soviy-soviy, kuchini tiklab olardi.
- d) Qora Bo‘g‘u uzun bo‘yli, ko‘ngli qattiq kishi edi. Ishbarani suyagi otasiga tortdi. O‘n ikkisida unga tenglashib, yonida yurar bo‘ldi.
- e) Jangju – sochini qamchiga o‘xshatib o‘rib yuradigan, ot dumini xotinlar sochiday o‘rib-bezaydigan, urishgisi kelmaydigan el edi.
- f) Tabg‘ach kuchsiz emas. Tuman-tuman qo‘shini, temir aravasi, manjanaqlari, olisga otar yoylari bor. Uni kuchsizligi o‘yida. O‘yi bo‘sh, o‘zi tuban, olchoq.
- g) “Bilga xoqon shunday ekan: O‘mizi keng, ko‘ksi qabariq, oq yuzi uzunchoq ekan. Yonog‘i tekis, ko‘zi qora, qoshi o‘rtacha qalin ekan. Ikki qansharining chizig‘i cho‘zilib, jag‘igacha tushgan, peshanasi keng, o‘zi uzun bo‘yli, kuchli kishi ekan”

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muhim badiiy vositalardan biri bo‘lgan tabiat tasviri mohir yozuvchi, so‘z san’atkori Isajon Sultonning badiiy uslubini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Peyzaj yozuvchi mahoratining muhim tarkibiy qismiga aylanib, g‘oyani chuqurlashtirishda faol xizmat qilmoqda. Bu qahramonlar turli yosh va kasbga mansub bo‘lishsa ham ularning qismati Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har birining o‘z qarashi, individual xususiyatlari, milliy koloritni aks ettiruvchi betakror jihatlari bor. Isajon Sulton ijodida peyzaj va portretlar asarning shunchaki ta’sirchanligi va ifodalilagini oshirish uchungina emas, balki romanning g‘oyaviy-mazmuniy mundarijasini, ijtimoiy-estetik qimmatini kuchaytirishga ham qaratilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton.”Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent : Factor books nashriyoti, 2022.
2. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/ to‘plab nashrga tayyorlovchilar : G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

3. A.Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017
4. Quronov D, Mamajonov Z., Sheralieva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr,2013
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi –Toshkent–“O‘qituvchi”,2005.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.–Toshkent: “O‘zbekiston”,2002
7. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/romanda-portret-tasviri/>